Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
<i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
<i>Xoshimova Y. I.</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
<i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
<i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
<i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
<i>Haydarova Namuna</i>	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
<i>Mohigul Nizomiddinova</i>	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
<i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
<i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
<i>Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi</i>	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
<i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
<i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
<i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
<i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	



JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA DEKONSTRUKTIV YONDASHUV VA SAMARALI PEDAGOGIK STRATEGIYALAR

Isabayeva Asida Yusufjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0003-1432-9651

Annotatsiya: Maqolada jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv metodikaning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Cho'lpon hamda Fitrat asarlari misolida matn tahlilida mazkur yondashuvning afzalliklari ko'rsatilib, uning o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, samarali pedagogik strategiyalar sifatida muhokama metodi, intertekstual va kontekstual tahlil usullari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, dekonstruktiv metodika, pedagogik strategiya, tanqidiy fikrlash, Cho'lpon, Fitrat, milliy uyg'onish.

Abstract: The article discusses the theoretical foundations and practical applications of the deconstructive methodology in teaching Jadid literature. Based on the works of Cho'lpon and Fitrat, the advantages of this approach in text analysis are demonstrated, proving its role in fostering students' critical and creative thinking. Moreover, discussion, intertextual, and contextual analysis methods are suggested as effective pedagogical strategies.

Key words: Jadid literature, deconstructive methodology, pedagogical strategy, critical thinking, Cho'lpon, Fitrat, national awakening.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы и практические возможности применения деконструктивной методики в преподавании джадидской литературы. На примере произведений Чулпона и Фитрата показаны преимущества данного подхода в анализе текста, обоснована его роль в развитии критического и творческого мышления учащихся. В качестве эффективных педагогических стратегий предлагаются методы дискуссии, интертекстуального и контекстуального анализа.

Ключевые слова: джадидская литература, деконструктивная методика, педагогическая стратегия, критическое мышление, Чулпон, Фитрат, национальное возрождение.

KIRISH

O'zbekiston milliy madaniyatining va ma'naviy uyg'onish jarayonining muhim qismi jadid adabiyoti hisoblanadi. Jadid adabiyoti adabiyotning bir oqimi sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllandi. Xalqni yangi ilm-fan, ta'lim va madaniyatga jalb etish, eski jamiyat tartiblarini tanqid qilish va zamonaviy o'zbek millatini shakllantirish maqsadida vujudga kelgan. Jadid adabiyoti nafaqat badiiy asarlar majmuasi sifatida, balki milliy ongini uyg'otish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aks ettirish orqali yangi davr g'oyalarini targ'ib qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Jadid adabiyotida bunday asarlar talaygina. Cho'lponning "Kecha va kunduz" hamda Fitratning "Abulfayzxon" dramasi bu jarayondagi eng yorqin namunalardan bo'lib, ular milliy o'zlik, tarixiy taraqqiyot va jamiyatdagi ziddiyatlarni chuqur va murakkab badiiy shaklda ifoda etadi. Bu asarlarni o'qish orqali o'quvchilarda nafaqat adabiy did rivojlanadi, balki ularda ijtimoiy va falsafiy tafakkur ham shakllanadi.

Bugungi kunda esa jadid adabiyotini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan birgalikda zamonaviy pedagogik yondashuvlar – jumladan, dekonstruktiv metodika ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dekonstruktiv yondashuv matnni bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali, ichki ziddiyatlar va yashirin ma'nolar orqali tahlil qilishni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, o'z nuqtai nazarini shakllantirish va adabiyot bilan chuqurroq shug'ullanish imkonini beradi.

Cho'lpon hamda Fitrat asarlari misolida dekonstruktiv metodikaning pedagogik jarayonda qo'llanilishi va uning samarali strategiyalari mazkur maqolada ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqola ta'lim jarayonida jadid adabiyotini o'qitish sifatini oshirish va milliy ma'naviyatni mustahkamlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadid adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan dekonstruktiv metodika samarali natijalar bermoqda. Derrida tomonidan ilgari surilgan dekonstruktiv nazariya matnning ichki ziddiyatlari va ko'p qirrali ma'nolarini ochishga qaratilgan bo'lib, Culler ham bu yo'nalishda metodologik asoslarni ishlab chiqqan. O'zbekiston adabiyotshunosligida Aliyev dekonstruktiv metodikaning oliy ta'limda samaradorligini tajribaviy asosda ko'rsatib, talabalarda chuqur tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Xolmatova esa ushbu yondashuvning o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shu bilan birga, jadid adabiyoti o'zining ma'naviy va ijtimoiy mazmuni bilan o'quv jarayonida keng o'rganilmoqda. Raximov milliy uyg'onish davrida jadid adabiyotining ma'naviy tarbiya va milliy ongini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ismoilov adabiyot darslarida innovatsion pedagogik usullarning zarurligini ko'rsatib, Salimov Cho'lpon asarlarining dekonstruktiv tahlili orqali matnning ko'p qatlamli mazmunini ochib beradi. Turdiyev esa "Kecha va kunduz" romanidagi ijtimoiy-siyosiy motivlarni keng yoritib, jadid asarlarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy va ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini dekonstruktiv adabiyotshunoslik yondashuvi tashkil etadi. Tadqiqotda sifat tahlili usullari qo'llanilib, Cho'lpon va Fitrat asarlari matnlarini chuqur o'rganish orqali ularning ichki qarama-qarshiliklari, ramziy qatlamlari va g'oyaviy-ma'naviy ziddiyatlari aniqlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy tayanch nuqtalaridan biri metodik yondashuvlar majmuasidir. Avvalo, matnshunoslik tahlili orqali jadid asarlarining mazmuni, poetik tuzilishi va ideologik qatlamlari ko'p qirrali talqin qilindi. Shuningdek, tarixiy-madaniy kontekstual tahlil yordamida matnlar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bog'liqligi o'rganildi. Intertekstual yondashuv asosida Cho'lpon va Fitrat asarlari o'zaro taqqoslanib, boshqa jadid ijodkorlari merosi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Bundan tashqari, pedagogik eksperiment metodi qo'llanilib, o'quv jarayonida dekonstruktiv metodikaning samaradorligi kuzatildi hamda talabalarining matni o'zlashtirish darajasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari aniqlab borildi. Yana bir muhim jihat sifatida qiyosiy yondashuv yordamida O'zbekiston va xorijiy adabiyotshunoslikdagi ilmiy tajribalar solishtirilib, samarali pedagogik strategiyalar belgilab olindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Aliyev, Petrova va Khan kabi olimlarning dekonstruktiv metodikaga oid tajribalaridan nazariy asos sifatida foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar jadid adabiyotini o'qitishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastavval, dekonstruktiv metodikaning nazariy asoslari va uning mazmun-mohiyatiga to'xtalamiz. Tadqiqotchi Fransua Derrida [Derrida, 1976] tomonidan ilgari surilgan dekonstruktiv metodika XX asrning oxiri va XXI asr boshida rivojlangan poststrukturalistik yondashuv hisoblanadi. Derridaning fikricha, matnlarni o'qishda ularning ichki tuzilishi, ya'ni qarama-qarshi, ziddiyatli elementlar tizimi aniqlanib, an'anaviy va barqaror deb qabul qilingan ma'nolar shubha ostiga olinishi kerak. Dekonstruktiv yondashuv matnni qat'iy, bir qatlamli va o'z-o'zidan tushunarli tizim sifatida emas, balki doimiy o'zgaruvchan, ko'p qirrali va murakkab strukturaviy jarayon sifatida qarashni talab qiladi. Bu esa matnlarning ko'plab ma'nolarini ochib beradi va ularning ichki qarama-qarshiliklarini ko'rsatadi.

Adabiyotshunoslikda dekonstruktiv metodikaning asosiy vazifasi – matnning ichki ziddiyatlarini aniqlash, an'anaviy qoidalar va qabul qilingan strukturaviy chegaralarni buzish orqali yangi ma'nolarni kashf etishdir [Culler, 1982]. Shu nuqtai nazardan, matn faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki falsafiy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy qatlamlar to'plamidir. Har bir qatlam o'ziga xos qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi va o'quvchiga har xil ma'no qirralarini kashf qilish imkonini beradi.

O'zbek adabiyotshunosligi sohasida ham dekonstruktiv yondashuvga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, tadqiqotchi M. Xolmatova o'z tadqiqotida dekonstruktiv metodikaning o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, dekonstruktiv tahlil o'quvchilarga matnni faqat yuzaki, an'anaviy usullarda emas, balki uning ichki ziddiyatlari va ma'no qatlamlari orqali chuqurroq anglashga yordam beradi [Xolmatova, 2020; 45-52]. Bu esa nafaqat badiiy tafakkurni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning o'z fikrini asoslash va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Shu bilan birga, dekonstruktiv metodika o'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi. Bu metodika yordamida asarlar ko'p qirrali yondashuv orqali tahlil qilinadi va har bir o'quvchi uchun yangi, individual anglash imkoniyatlari yaratiladi. Natijada, o'quv jarayonida yanada interaktiv va ijodiy muhit vujudga keladi. Shuningdek, o'quvchilar tahlil qilingan ushbu asarlarni bir umrga eslab qolish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.



Jadid adabiyoti o'zining ijtimoiy-siyosiy mazmuni, milliy uyg'onishga qaratilgan g'oyalari bilan o'quvchilarni nafaqat badiiy ta'limga, balki tarixiy va madaniy ongga ham jalb qiladi. Ushbu adabiyot oqimi o'z davrida zamonaviylik, taraqqiyot va ta'lim-tarbiya masalalarini faol targ'ib qilgan bo'lib, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, jadid adabiyotining o'qitilishi nafaqat badiiy didni rivojlantirish, balki milliy tarix va madaniyatni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Raximov ta'kidlaganidek, jadid adabiyoti milliy uyg'onish davrining muhim qismi bo'lib, uning o'quv jarayonidagi o'rni milliy ma'naviyatni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi [Raximov, 2017; 12-20]. Raximovning tadqiqoti jadid adabiyotining milliy uyg'onishdagi o'rnini keng qamrovda yoritadi. U asarlarning o'quv jarayonida milliy ma'naviyatni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi, bu esa maqolada jadid adabiyotining pedagogik ahamiyatini tushuntirishda muhim manba hisoblanadi.

Biroq, amaliyotda ko'plab ta'lim muassasalarida jadid adabiyotini o'qitishda an'anaviy metodlar ustunlik qilmoqda. Ushbu metodlar ko'pincha matnlarni yuzaki tahlil qilishga, faktlarni yodlashga va aniq javoblarni topishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarda chuqur tanqidiy fikrlash va matnga nisbatan mustaqil pozitsiya shakllantirishda yetarlicha samaradorlik bermaydi. Tadqiqotchi O. Ismoilov ta'kidlaganidek, bunday yondashuvlar o'quvchilarning asar mazmunini to'liq tushunishiga to'sqinlik qiladi va ularning ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi [Ismoilov, 2019; 30-37].

Shuning uchun ta'lim jarayonida yangi pedagogik metodlarni, jumladan, dekonstruktiv yondashuvni joriy etish zarurati paydo bo'lmoqda. Tadqiqotchi O. Ismoilov o'z maqolasida an'anaviy pedagogik metodlarning jadid adabiyoti o'qitilishidagi cheklovlarini ko'rsatadi va yangicha, innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu manba maqoladagi dolzarb pedagogik muammolarni aniqlashga xizmat qiladi.

Dekonstruktiv metodika asarlarning murakkab, ko'p qirrali ma'nolarini ochish va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarga matnlarni yuzaki qabul qilishdan ko'ra, ularning ichki ziddiyatlarini, kontekstual qatlamlarini va ijtimoiy-madaniy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu tariqa, talabalar faqat faktlarni yodlamasdan, balki o'zlari uchun yangi ma'nolar kashf etib, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar. Sultonova dekonstruktiv metodikaning zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhimligini ta'kidlaydi [Sultonova, 2021; 45-53]. Tadqiqotchi O. Sultonova dekonstruktiv metodikaning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi va o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. U maqolada ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirishda bu metodikaning o'rni haqida ilmiy asoslarni keltiradi.

Natijada, jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv metodikaning joriy etilishi nafaqat o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning milliy madaniyat va tarixni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Bu esa umumiy ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, milliy o'zlikni mustahkamlash va talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotimiz davomida Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari va Fitratning "Abulfayzxon" dramasi, ularning dekonstruktiv pedagogik tahlili amalga oshirildi. Dastavval, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari tahliliga to'xtalsak.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari milliy uyg'onish, ijtimoiy o'zgarish va individual shaxsning jamiyatdagi o'rni kabi murakkab va chuqur mavzularni o'zida mujassamlashtirgan. Asarda "kecha" va "kunduz" obrazlari orqali o'tgan va kelajak, zulmat va yorug'lik, jaholat va ma'rifat kabi ziddiyatli tushunchalar ramz sifatida ifodalangan [Turdiev, 2021; 54-62]. Ushbu ramzlar yordamida muallif o'z davrining ijtimoiy-siyosiy vaziyatini, inson qalbidagi ichki kechinmalarni va o'zgarishlarga bo'lgan intilishlarni ko'rsatadi.

Dekonstruktiv yondashuv ushbu qarama-qarshiliklarni faqat oddiy antitezalar sifatida emas, balki ular orasidagi murakkab o'zaro bog'lanish va noaniqliklarni ham ochib beradi. Salimov ta'kidlaganidek, "kecha" va "kunduz" konseptlari asarda bir-biridan mustaqil emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, doimiy o'zgaruvchan holatlar sifatida ko'riladi [Salimov, 2020; 33-41]. Bu yondashuv yordamida matnning statik va qattiq tushunchalaridan ko'ra, uning dinamik va ko'p qatlamli mazmuni ochiladi.

Masalan, "kecha" ramzi faqat zulmat, jaholat va qiyinchiliklarni anglatmaydi; u shu bilan birga yangi boshlanishlar uchun zamin, qayta tug'ilish imkoniyati sifatida ham talqin etilishi mumkin. Shu tarzda, "kunduz" ham faqat yorug'lik va ma'rifat belgisi emas, balki o'z navbatida yangi qiyinchiliklar va sinovlar davri sifatida ko'rsatiladi. Bu qarashlar dekonstruktiv metodikaning asosiy tamoyillaridan biri – matn ichidagi ziddiyatlarni birdaniga inkor etmasdan, ularni birlashtirish va o'zaro ta'sirini tahlil qilish tamoyiliga mos keladi.

Ta'lim jarayonida ushbu yondashuv o'quvchilarga "Kecha va kunduz" asarini nafaqat soddalashtirilgan ramzlar to'plami sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy, falsafiy va tarixiy kontekstlarga ega ko'p qirrali matn sifatida o'rganish imkonini yaratadi. Natijada, o'quvchilar tanqidiy fikrlash, analiz va ijodiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida juda muhimdir.

"Kecha" va "kunduz"da zulmat va yorug'lik, eskilik va yangilik, jaholat va ma'rifat, erksizlik va ozodlik ramzlari sifatida berilgan. Dekonstruktiv yondashuv esa shuni ko'rsatadiki, bu qarama-qarshiliklar qat'iy emas. Ya'ni "kunduz" ichida ham zulmat unsurlari bor, "kecha"da esa ma'rifat uchqunlari ko'rinadi.

Shuningdek, romanda erkaklar ko'proq markaz sifatida tasvirlanadi, ayollar esa ko'pincha chekkada qoladi. Dekonstruksiya bu tuzilmani buzadi. Unga ko'ra, aslida ayollar – jamiyatning “chekkasi” emas, balki markaziy ma'noni ko'rsatib beruvchi kuch. Masalan, Zebining fojiasi butun ijtimoiy tuzumning zulmini ochib beradi.

Matnda to'g'ridan-to'g'ri mustamlakachilik tanqid qilinmaydi, lekin aytilmagan joylarda rus mustamlakasi va mahalliy mutaassiblikning zulmi ko'rinadi. Dekonstruktiv metod orqali o'quvchi bu “sukut”ni ko'radi: aytilmagan gaplar aytilganlaridan ham muhim bo'lib chiqadi.

Romanda “kunduz keladi” degan umid beriladi, ammo yakunida ham jamiyat to'liq ozod bo'lmaydi. Bu matnning o'zini o'zi inkor qilib, ya'ni yozuvchi yorug' kelajakni va'da qiladi, ammo voqelik unday emas. Demak, matn o'z g'oyasini “buzib yuboradi”.

“Kecha va kunduz” nafaqat kecha va kunduzning oddiy qarama-qarshiligi, balki ular bir-biriga singib ketganini ko'rsatadi. Ayollar timsoli orqali jamiyatdagi yashirin zulm ochiladi. Matndagi sukut va qarama-qarshiliklar orqali o'quvchi matnga yangicha qaraydi. Chunki, “kunduz” hamon zulmat soyasidan chiqmagan.

Ikkinchi tahlil obyektimizdagi asar Fitratning “Abulfayzxon” dramasi – o'zbek jadid adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo'lib, unda milliy tarix, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, shaxs va hokimiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar hamda insoniy tanlovlar muammosi yoritiladi.

Asarda tarixiy shaxslar orqali xalqning milliy uyg'onish jarayoni, ijtimoiy adolat, mafkuraviy to'qnashuvlar kabi dolzarb mavzular ko'tariladi. Tadqiqotchi H. Karimov ta'kidlaganidek, “Abulfayzxon” dramasi tarixiy material asosida yaratilgan bo'lsa-da, undagi ruhiy iztiroblar, shaxsiy dilemma va siyosiy kurashlar hozirgi davr uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan [Karimov, 2018; 33-40].

Dekonstruktiv metodika ushbu dramatik asarni tahlil qilishda o'quvchilarni an'anaviy, soddalashtirilgan yondashuvdan uzoqlashtirib, matndagi noaniqlik, qarama-qarshilik va ko'p qatlamli ma'nolarni izlab topishga undaydi. Masalan, Abulfayzxon obrazi faqatgina tarixiy hukmdor emas, balki ichki ziddiyatlar girdobida qolgan, ma'naviy qarorlar bilan yuzlashayotgan shaxs sifatida ko'rinadi. Boshqa bir tadqiqotchi M. Nazarov ta'kidlaganidek, dekonstruktiv yondashuv orqali asardagi obrazlar mustaqil, murakkab va ba'zan o'z-o'ziga zid xarakterlar sifatida tahlil qilinadi, bu esa o'quvchilarda ko'proq savollar uyg'otadi va tahlil qilish istagini kuchaytiradi [Nazarov, 2019].

Dekonstruksiya dramadagi tarixiy obrazlarni zamonaviy kontekstda qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Abulfayzxonning shaxsiy tanlovlari, u boshqarayotgan jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlik, hofizlarning ziddiyatli roli – bularning barchasi matnning ichki ziddiyatlari orqali ochiladi.

Bunday yondashuv orqali o'quvchilar tarixiy voqealarni nafaqat faktlar to'plami sifatida, balki ramziy va falsafiy tizim sifatida o'rganadilar. Bu esa ularning adabiy matnga tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi, tarixga esa hissiy va tafakkuriy nuqtai nazardan yondashishga yordam beradi.

“Abulfayzxon” dramasi dekonstruktiv tahliliga ko'ra, asarda qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, shoh (Abulfayzxon) va xalq munosabatlari. Unga ko'ra, hukmdor kuchli ko'rinadi. Lekin aslida u ojiz, xalq esa zaif ko'rsatilsa ham ichida kuchli norozilik bor. Shuningdek, hokimiyat va adolat masalasida ham bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, rasmiy hokimiyat mavjud bo'lsa-da, ammo u adolatni ta'minlamaydi. Adolat asosan xalqning dardida yashirinadi. Dekonstruksiya shuni ochib beradiki, shohning “kuchli hokim” qiyofasi – aslida illuziya, ichidan esa zaiflik sezilib turadi.

Bundan tashqari, asarning markazida xoqon va amaldorlar turadi, chekkada esa oddiy xalq. Lekin matnni buzib o'qiganda ko'rinadiki, xalq – “chekka” emas, balki haqiqiy markaziy kuch. Chunki podshohning taqdiri ham, davlatning qulashi ham xalqning ahvoriga bog'liq.

Dramadagi matnlarda to'g'ridan-to'g'ri mustamlakachilik haqida gap uchramasa-da, biroq ko'proq ichki zaiflik va hukmdorning nodonligi ko'rsatiladi. Lekin aytilmagan joyda shunday savol tug'iladi: “Nega davlat quladi?” Bu savol ostida tashqi kuchlar ichki zaiflik uyg'unlashib turgani seziladi.

Drama hukmdorni markazda ko'rsatadi, lekin uning obrazini asta-sekin yemiradi. Abulfayzxon hokimiyat timsoli bo'lishi kerak edi, ammo oxirida u butunlay ojiz va tahqirlangan holda chiqadi. Demak, matn o'zining asosiy tayanch nuqtasini o'zi buzib tashlaydi.

“Abulfayzxon” dramasi dekonstruktiv xulosasi shuni ko'rsatadiki, shoh va hokimiyatning buyukligini ko'rsatish o'rniga, uning yashirin zaifligini ochadi. Markaz va chekka joylarini almashtirganda, xalq dramatik markazga aylanadi, shoh esa soyaga tushib qoladi. Asarda aytilmagan gaplar – mustamlaka davridagi og'riqli haqiqatni sezdiradi. Natijada drama hokimiyatni madh qilmaydi, balki uni dekonstruksiya qilib, zulm va nodonlik ustiga qurilgan tuzumning yemirilishini ko'rsatadi.

Jadid adabiyotini o'qitish jarayonida dekonstruktiv metodikani samarali joriy etish maqsadida qator pedagogik strategiyalar qo'llanilishi mumkin. Ushbu strategiyalar nafaqat matnning yuzaki ma'nolarini anglash, balki uning ichki tuzilishini, qo'shimcha ma'nolar qatlamlarini va madaniy-tarixiy kontekstdagi o'rnini ochib berish imkonini yaratadi.

Birinchi, matnni ko'p qirrali tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali o'quvchilar asarning faqat sirtki ma'nolari bilan cheklanib qolmasdan, undagi ichki ziddiyatlar, ideologik qarama-qarshiliklar va yashirin ma'nolarni tahlil qilish ko'nikmasini hosil qiladi.



Ikkinchi, savol-javob va muhokama metodlari dekonstruktiv yondashuvning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarni matn asosida savollar qo'yishga, g'oyalarni muhokama qilishga va shaxsiy nuqtai nazarini ilmiy asoslashga yo'naltirish ularning ma'rifiy faolligini oshiradi. Tadqiqotchi S. Rahimov ta'kidlaganidek, bunday muhokamalar matn bilan interaktiv muloqotga kirishishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [Rahimov, 2022; 21-26].

Uchinchi, tarixiy-madaniy kontekstni chuqur o'rganish matnning semantik qirralarini yanada to'liqroq ochish imkonini beradi. Asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini o'rganish natijasida, uning ramziy tizimi va g'oyaviy yo'nalishlari yaxshiroq anglanadi. Tadqiqotchi N. Abdullaevaning fikricha, bunday yondashuv o'quvchilarda kontekstual tafakkurning shakllanishiga olib keladi [Abdullayev, 2020; 10-15].

To'rtinchi, intertekstual tahlil usuli ham jadid adabiyotini o'qitishda katta samara beradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "Kecha va kunduz" asari bilan Cho'lponning "Abulfayzxon" dramasi yoki boshqa jadid namoyandalarning asarlarini qiyosiy o'rganish orqali umumiy mavzular, g'oyalar va adabiy tendensiyalar ochib beriladi.

Beshinchi, ijodiy faoliyatga rag'batlantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarni esse yozish, dramatik sahnalarni sahnalashtirish, matnga alternativ yakuniy variantlar yaratish kabi ijodiy faoliyatlarga jalb etish ularning asarga nisbatan shaxsiy munosabatini kuchaytiradi. Bu jarayonda matnni chuqur o'zlashtirish, uni nafaqat tushunish, balki qayta yaratish jarayoni sodir bo'ladi.

Shu tariqa, dekonstruktiv metodikaga asoslangan ushbu pedagogik strategiyalar jadid adabiyotini o'qitishda o'quvchilarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va xorijiy adabiyotshunoslikda olib borilgan tadqiqotlar dekonstruktiv metodikaning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishini tasdiqlaydi. Xususan, ushbu metodikadan foydalanilgan holda o'quvchilarning matnni o'zlashtirish darajasi oshishi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatilgan.

Xususan, D. Aliyevning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida olib borgan eksperimental tadqiqotlarida dekonstruktiv metodika qo'llangan guruh talabalari matn tahlilida chuqurroq yondashuvlar ko'rsatganini aniqlagan [Aliyev, 2021; 50-56].

Shuningdek, tadqiqotchi E. Petrova o'zining Rossiya ta'lim tizimidagi kuzatuvlarida dekonstruktiv metodikaning o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, asosli tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirganini qayd etadi [Petrova, 2019; 44-51].

Yana bir xorijiy olim, M. Khan esa ushbu yondashuvni ingliz tili va adabiyoti bo'yicha darslarda qo'llab, matnlar bilan ishlash sifati va dars ishtirokchilarining faolligi oshganini ta'kidlaydi [Khan, 2020; 66-74].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv metodika qo'llanilishi zamonaviy pedagogikaning muhim yutuqlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarga matnni chuqur anglash, tarixiy-madaniy kontekstda tahlil qilish va qarama-qarshi g'oyalar o'rtasidagi nozik farqlarni his qilish imkonini beradi. Ayniqsa, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va Fitratning "Abulfayzxon" dramasi singari murakkab asarlar dekonstruktiv tahlil orqali o'quvchilarga keng tafakkur imkonini beradi.

Dekonstruktiv metodika yordamida talaba yoki o'quvchi matn bilan faol muloqotga kirishadi, o'z fikrini shakllantiradi va uni himoya qilishni o'rganadi. Bu jarayon esa tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, dekonstruktiv metodika nafaqat badiiy asarlarni tahlil qilish vositasi, balki shaxsiy va intellektual rivojlanishning pedagogik strategiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva, N. (2020). Tarixiy kontekstni o'rganishning ahamiyati. O'zbekiston ta'limi, 4(2), 10-15.
2. Aliyev, D. (2021). Dekonstruktiv metodika samaradorligi. Xorijiy til va adabiyot, 10(6), 50-56.
3. Culler, J. (1982). On Deconstruction: Theory and Criticism after Structuralism. Cornell University Press.
4. Derrida, J. (1976). Of Grammatology. Johns Hopkins University Press.
5. Ismoilov, O. (2019). Jadid adabiyoti darslarida innovatsion pedagogik yondashuvlar. O'zbekiston ta'limi, 5(2), 30-37.
6. Karimov, H. (2018). Fitrat dramaturgiyasining g'oyaviy-falsafiy asoslari. Jadidlar merosi, 2(4), 33-40.
7. Khan, M. (2020). Pedagogical strategies for teaching literature. International Journal of Education, 9(3), 66-74.
8. Nazarov, M. (2019). Dekonstruktiv yondashuv asosida tarixiy dramatik asarlarni o'rganish. Adabiyot va ma'rifat.
9. Petrova, E. (2019). Critical thinking development through literature analysis. Journal of Modern Education, 4(8), 44-51.
10. Rahimov, S. (2022). Adabiyot darslarida muhokama metodlari. O'qituvchi, 3(1), 21-26.
11. Raximov, B. (2017). Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti. O'zbek adabiyoti tarixi, 1, 12-20.
12. Salimov, J. (2020). Dekonstruktiv tahlil usulida Cho'lpon asarlarini o'rganish. Adabiyotshunoslik va ta'lim, 8(1), 33-41.
13. Sultonova, D. (2021). Dekonstruktiv metodika va zamonaviy ta'lim. Pedagogika va innovatsiyalar, 4(3), 45-53.
14. Turdiyev, A. (2021). Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida ijtimoiy-siyosiy mavzular. O'zbekiston adabiyoti va madaniyati, 12(3), 54-62.
15. Xolmatova, M. (2020). Dekonstruktiv yondashuv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. O'zbek adabiyoti va pedagogikasi, 3(4), 45-52.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.